

YUQORI SINIF O‘QUVCHILARI SHAXSINING YO‘NALGANLIGI VA KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHI

Komilova Nigora Baxtiyorovna

*Toshkent shahar Yashnobod tumani 61-sonli
umumiy o‘rta ta’lim maktabi psixologi*

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada yuqori sinf o‘quvchilari shaxsining yo‘nalganligi va kasbiy o‘zligini anglash jarayonining psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Kasbiy o‘zlikni anglashning shakllanish omillari, o‘quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini rivojlantirish hamda ongli kasb tanlashga tayyorlash masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: shaxs yo‘nalganligi, kasbiy o‘zlikni anglash, kasb tanlash, yuqori sinf o‘quvchilari, motivatsiya, qobiliyat, qiziqish, kasbga yo‘naltirish, psixologik rivojlanish.

KIRISH

Yuqori sinf o‘quvchilari hayotida kasb tanlash va kelajak faoliyatini rejalashtirish muhim o‘rin tutadi. Bu davrda shaxsning yo‘nalganligi shakllanib, o‘quvchi o‘z qiziqishlari, qobiliyatlari va imkoniyatlarini baholashga harakat qiladi. Kasbiy o‘zlikni anglash esa yoshlarning o‘z kelajagini ongli ravishda rejalashtirishiga xizmat qiladi. Shaxs yo‘nalganligi insonning ehtiyojlari, qiziqishlari, maqsadlari va hayotiy qarashlarida namoyon bo‘ladi. O‘quvchining yo‘nalganligi qanchalik aniq shakllansa, uning kasbiy tanlovi ham shunchalik ongli va muvaffaqiyatli bo‘ladi.

Kasbiy o‘zlikni anglash jarayonida o‘quvchi o‘z qobiliyatlarini tahlil qiladi, turli kasblar haqida ma’lumot to‘playdi va o‘z imkoniyatlarini mehnat bozori talablari bilan solishtiradi. Bu jarayonning muvaffaqiyatli kechishi psixologik va pedagogik yordamga bog‘liq. Maktab psixologi tomonidan o‘tkaziladigan diagnostik tadbirlar, kasbiy qiziqishlarni aniqlashga qaratilgan testlar va maslahatlar o‘quvchilarning kasbiy o‘zligini anglashiga yordam beradi. Shuningdek, turli kasb egalari bilan uchrashuvlar, ekskursiyalar va kasbga yo‘naltirish tadbirlari ham muhim ahamiyatga ega.

Oila ham kasbiy o‘zlikni anglashning shakllanishida muhim omil hisoblanadi. Ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi, farzand qiziqishlariga hurmat bilan yondashishi va mustaqil tanlov qilishiga imkon yaratishi o‘quvchining kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Kasbga yo‘naltirishdan asosiy maqsad o‘z kelayotgan yosh avlodni ongli va mustaqil ravishda kasb tanlashga tayyorlashdan iborat bo‘lib, bu jarayon shaxsning bo‘lg‘usi kasbiy faoliyat subyekti sifatida shakllanishini nazarda tutadi hamda uning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga moslashib borishiga ko‘maklashadi.

Innovatsion faoliyat shunday vositalar yordamida kechadigan holatki, bunda pedagogik yangilanish g'oyasi paydo bo'ladi. U sotsial holatga undan ta'limdagi yangilikni tug'ilishi, paydo bo'lishiga olib keladi. Shu munosabat bilan o'quvchilarga ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini singdirish, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy qadriyatni shakllantirish, yosh avlodni turmushga va mehnatga, ijtimoiy zarur kasblarni ongli ravishda tanlashga tayyorlash mehnat ta'lim va tarbiyasining vazifalaridir.

O'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib borishda "Kasb nima?" degan savol tug'iladi.

Kasb to'g'risida bir qancha ta'riflar berilgan.

Kasb bu – insonga ma'lum bir talablar qo'yuvchi faoliyat turidir.

Kasb – insonni jamiyat tomonidan tan olinishidir.

Kasb – tiriklik va tirikchilik manbayidir.

Shu boisdan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish muammosi umumiy o'rta ta'lim maktabi ishida katta o'rin tutadi. "Mening orzuim", "Kim bo'lsam ekan", "Men sevgan kasb", "Kasbning yomoni yo'q", "Kasbim faxrim" degan mavzular har bir maktab bitiruvchi yigit va qiz oldida turgan asosiy muammolardan biridir. O'quvchilarning o'qishga bo'lgan chanqoqligini qondiruvchi birinchi ziyo – chashma bu maktabdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarda kasblar tiplarini mustaqil holda bilish (Insontabiat, inson-texnika, inson-badiiy timsol, inson-belgili tizim), tanlayotgan kasbning talablarini o'z shaxsiy sifatlari bilan qiyoslay olish, o'z moyilligi, qobiliyati, salomatligi tanlanayotgan kasbga muvofiqligini to'g'ri baholash ko'nikmalari shakllanishi lozim. O'qituvchining kasb-hunarga yo'naltirishdagi asosiy vazifasi – har bir bitiruvchi o'quvchini, uning kasbga va bilimga qiziqishlarini, moyillik, ehtiyojlari, atrof-muhitni, oilaviy ahvolini yaxshi va har tomonlama o'rganishdan iborat bo'lishi kerak. Kasbga yo'naltirish uzoq muddatli yalpi dasturlar asosida va milliy xalq hunarmandchilik kasblarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Ayrim turdagi kasblarga yo'naltirish bilan cheklanib qolmasdan, balki aniq iqtisodiy hududning turli sohalaridagi kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yoshlarni sanoat, qishloq xo'jaligining boshqa tarmoqlaridagi kasblar va milliy hunarmandchilik kasblariga umumta'lim maktablarining texnologiya darslarida yo'naltirish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Xususan, 9-sinf texnologiya dasrligida aynan 4-bob "Kasb tanlashga yo'llash texnologiyasi" deb nomlanib, o'quvchilar kasb professiogrammasi ya'ni insonning psixologik xususiyatlariga tayangan holda kasbiy tavsiflar, muhim hisoblangan kasbiy sifatlari, kasb psixogrammasi to'g'risida asosiy tushuncha va ta'riflar keltirilgan. O'quvchilar o'z navbatida ushbu mavzular bo'yicha psixodiagnostik usullar yordamida kasbiy faoliyat asoslari, kasbiy tanlov uchun tuzilgan psixogrammalarning mazmuni, unda aks ettirilgan mutaxassis faoliyatiga berilgan tavsiyalar, "Kasb tanlash"

varaqsini to'ldirish to'g'risidagi tushunchalarga ega bo'ladilar. Amaliy mashg'ulot sifatida "Professiogramma" jadvalini bevosita o'zlari tanlagan kasb faoliyati bo'yicha to'ldiradilar. Natijada o'quvchilarning shaxsga ta'sir etadigan psixologik harakatlari, ko'nikmalari, professional fikrlash, shu jumladan, ijodiy fikrlash, kasbiy tajribani boyitib borish, kasbiy o'sishda rejalarni amalga oshirish va kasbiy qobiliyatlari rivojlanadi. Shunday ekan o'quvchilarni o'z vaqtida xohishlariga binoan kasb tanlashlari ta'minlansa, ularda hayot jamiyatimizning ertangi kuniga ishinch tuyg'usi shakllanadi.

Kasbiy o'zini anglashning psixologik asoslari:

Kasbiy o'zini anglash shaxsning o'z qobiliyatlari, imkoniyatlari va kasbiy istiqbollari anglash jarayoni bo'lib, u bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan bir necha psixologik tarkibiy qismlardan tashkil topadi. Avvalo, kognitiv komponent o'quvchining o'z qiziqishlari, qobiliyatlari va tanlamoqchi bo'lgan kasbning xususiyatlari haqidagi bilimlarini o'z ichiga oladi. Shaxs kasbning mazmuni, mehnat sharoitlari va kelajakdagi imkoniyatlari haqida qanchalik to'liq ma'lumotga ega bo'lsa, uning kasbiy tanlovi shunchalik ongli bo'ladi.

Emotsional komponent esa kasbiy faoliyatga nisbatan shakllangan qiziqish, motivatsiya va ijobiy munosabatlar bilan tavsiflanadi. O'quvchining muayyan kasbga bo'lgan qiziqishi va undan ma'naviy qoniqish olish istagi kasbiy o'zini anglashning muhim omili hisoblanadi. Faoliyat komponenti esa tanlangan kasbga erishish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni egallashga qaratilgan amaliy harakatlarda namoyon bo'ladi. Shaxsning kasbiy yo'nalganligi turli ichki va tashqi omillar ta'sirida shakllanadi. Qiziqish va moyilliklar o'quvchining ma'lum faoliyat turlariga bo'lgan ehtiyojini belgilasa, e'tiqod va qadriyatlar uning kasbiy maqsadlarini aniqlashtiradi. Shu bilan birga, oilaviy muhit, ota-onalarning kasbiy tajribasi, tengdoshlar ta'siri hamda mehnat bozori talablari ham kasbiy tanlov jarayonida muhim o'rin egallaydi.

Kasbiy o'zini anglash jarayonida "Men" konsepsiyasi alohida ahamiyatga ega. O'quvchi o'zining bugungi kundagi shaxsiy qiyofasini kelajakdagi kasbiy faoliyati bilan bog'lashga harakat qiladi. "Men o'quvchiman" va "Men kelajakda mutaxassis bo'laman" degan tasavvurlar o'rtasidagi uyg'unlik shaxsning kasbiy identifikatsiyasini shakllantiradi. Ushbu tasavvurlar qanchalik aniq va real bo'lsa, kasb tanlashdagi xatolar ehtimoli shunchalik kamayadi. Yuqori sinf o'quvchilarida kasbiy o'zini anglashni rivojlantirishda maktab va oilaning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Maktab psixologlari va pedagoglar o'quvchilarning qiziqishlari hamda qobiliyatlarini muntazam o'rganib borishlari, kasbga yo'naltirish bo'yicha individual tavsiyalar berishlari zarur. Shuningdek, turli tashkilotlar, korxonalar va muassasalarga uyushtiriladigan ekskursiyalar, mutaxassislar bilan uchrashuvlar hamda kasbiy

diagnostika metodikalaridan foydalanish o‘quvchilarning kasbiy o‘zini anglash jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.

XULOSA

Yuqori sinf o‘quvchilarida shaxs yo‘nalganligi va kasbiy o‘zlikni anglashning rivojlanishi ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli faoliyatiga zamin yaratadi. Oila, maktab va psixolog hamkorligi asosida olib boriladigan kasbga yo‘naltirish ishlari yoshlarning ongli kasb tanlashiga va o‘z imkoniyatlarini to‘liq ro‘yobga chiqarishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘oziyev E.G‘. Kasb psixologiyasi. – Toshkent, 2018.
2. Karimova V.M. Psixologiya. – Toshkent, 2019.
3. Davletshin M.G. Pedagogik psixologiya. – Toshkent, 2020.
4. Nishonova Z.T. Yosh davrlari psixologiyasi. – Toshkent, 2019.
5. Shoumarov G‘.B. Psixologik maslahat asoslari. – Toshkent, 2018.
6. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.
7. Klimov E.A. Psixologiya professionalnogo samoopredeleniya. – Moskva, 2004.